



O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA SOLIQ QONUNCHILIGINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Turdiyeva Diyoraxon Solijon qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti yuridika fakulteti bakalavriati

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Buyuk Britaniya soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki davlatning soliq tizimlaridagi o'ziga xos jihatlar, soliq iqtisodiyotidagi roli, qonunchilik negizlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston soliq qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola O'zbekistonda soliq tizimini yanada demokratlashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan asosli xulosalar bilan yakunlangan.

Kalit so'zlar: soliq qonunchiligi, konstitutsiyaviy asoslar, soliq huquqi, O'zbekiston, Buyuk Britaniya, soliq islohoti, qiyosiy huquqshunoslik.

Kirish

Soliq tizimi har qanday davlatning moliyaviy va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Davlat majburiy tusda o'z fuqarolaridan soliq undirib, bu mablag'larni ijtimoiy, iqtisodiy va mudofaa kabi fundamental vazifalarni bajarish uchun sarflaydi. Demak, soliq - bu shunchaki moliyaviy instrument emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarning aksi hamdir. Zamonaviy dunyoda soliq tizimlarining samaradorligi ko'p jihatdan ularning huquqiy asoslariga bog'liq. Shu ma'noda, soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan konstitutsiyaviy normalar soliq tizimining legitimligini va barqarorligini ta'minlaydi. O'zbekiston va Buyuk Britaniya soliq tizimlari tarixiy shakllanishi, huquqiy manbalarining turlichaligi va qo'llanilish mexanizmlari jihatidan sezilarli farqlarga ega. Buyuk Britaniya dunyodagi eng qadimiy soliq tizimlaridan biriga ega



bo'lib, uning soliq amaliyoti asrlar davomida shakllangan. O'zbekiston esa mustaqillikka erishganidan so'ng o'zining soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirish jarayonida bo'lib, bu jarayon xalqaro tajribani o'rganish va milliy xususiyatlarni inobatga olish orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Men ushbu maqolada ikki mamlakatning soliq qonunchiligini tahlil qilish orqali O'zbekiston soliq tizimining konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib berishni maqsad qilganman. Bu tahlil nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, O'zbekistonda soliq islohotlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblayman. Ushbu tadqiqotda bir qator ilmiy-tadqiqot usullariga tayandim. Asosiy metodologik asos sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil usulini qo'llladim, chunki bu ikki davlat soliq qonunchiligining muhim jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, tarixiy, tizimli, mantiqiy tahlil va sintez metodlari ham ishlataldi. Tadqiqot jarayonida quyidagi materiallar tahlil qilindi:

- Ikki mamlakatning konstitutsiyaviy hujjatlari
- Soliq qonunchiligi va kodekslari
- Sud qarorlari va amaliyoti
- Ilmiy maqolalar va monografiyalar
- Ekspert xulosalari va tahliliy materiallar

Tadqiqot doirasida har ikkala davlatning soliq huquqi sohasidagi yetuk mutaxassislarining ilmiy ishlarini o'rganib chiqdim va soliq qonunchiligini tartibga soluvchi huquqiy normalarni chuqur tahlil qildim. Shuningdek, dolzarb statistik ma'lumotlarni ham tahlilga jalb etdim, bu esa soliq tizimidagi amaliy tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi.

O'zbekiston soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston soliq qonunchiligining eng yuqori pog'onasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi turadi. Konstitutsiyaning 63-moddasida " Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashi shart."¹ degan norma mavjud. Bu norma soliq to'lashning konstitutsiyaviy majburiyat ekanligini belgilaydi. Biroq, mening

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2022-yil tahriridagi. Toshkent: "Adolat", 2022. 51-modda.



fikrimcha, bu modda soliq to'lovchilarning huquqlarini to'liq qamrab olmaydi, chunki unda faqat majburiyat haqida so'z yuritilgan, ammo soliq to'lovchilarning huquqlari yetarlicha olib berilmagan. Konstitutsiyaviy normalar asosida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi ishlab chiqilgan va 2020-yil 1-yanvardan boshlab amaliyotga joriy etilgan.² Yangi Soliq kodeksi soliq tizimini isloq qilish, soliq ma'murchilagini soddalashtirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Holbuki, O'zbekiston soliq qonunchiligi tizimida quyidagi o'ziga xos xususiyatlar mavjud:

1. **Markazlashtirilgan tizim.** O'zbekistonda soliq tizimi markazlashtirilgan bo'lib, soliqlar va soliq stavkalari respublika miqyosida yagona tarzda belgilanadi. Bu bir tomondan soliq tizimining yagonaligini ta'minlasa, boshqa tomondan mahalliy hokimiyat organlarining soliq sohasidagi vakolatlarini cheklaydi.

2. **Kodifikatsiyalashgan soliq qonunchiligi.** O'zbekiston soliq qonunchiligi asosan kodifikatsiyalashgan bo'lib, Soliq kodeksi soliq sohasidagi asosiy normativ hujjat hisoblanadi. Bu soliq qonunchiligining tizimlilagini ta'minlaydi, ammo ba'zan o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga tezkor moslashishni qiyinlashtiradi.

3. **Soliq nazoratining kuchli mexanizmlari.** O'zbekistonda soliq nazorati mexanizmlari ancha kuchli va soliq organlarining vakolatlari keng. Bu soliq tushumlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lsada, ba'zan tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy to'siqlar yaratishi mumkin.

Zamonaviy sharoitda O'zbekiston soliq qonunchiligini isloq qilish jarayoni jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Professor T. Malikov ta'kidlaganidek, "O'zbekiston soliq tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichi chuqur tarkibiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi, bu o'zgarishlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va

² O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrirda). 2019-yil 30-dekabr. Toshkent, "Adolat", 2020.



tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan".³ Shuni aytish mumkinki, so'nggi yillarda O'zbekistonda soliq yukining kamayishi, soliq stavkalarining optimallashtirilishi va soliq imtiyozlari tizimining takomillashtirilishi kuzatilmoxda. Bu o'zgarishlar O'zbekiston soliq tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan.

Buyuk Britaniya soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari. Buyuk Britaniya soliq qonunchiligi o'zining uzoq tarixiy rivojlanish yo'liga ega. Buyuk Britaniyada yozilgan yagona konstitutsiya mavjud emas, shuning uchun soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari bir qator tarixiy huquqiy hujjatlar va parlamentning qonunlari orqali belgilanadi. 1689-yildagi "Bill of Rights" (Huquqlar to'g'risidagi qonun) soliq sohasida muhim konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan prinsipni belgilab bergan: "Parlament rozilgisiz qirollik hokimiyati nomidan soliqlar yig'ish qonunga ziddir".⁴ Bu prinsip Buyuk Britaniyada soliqlarni belgilashda parlamentning ustuvorligini ta'minlaydi. Buyuk Britaniya soliq qonunchiligining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Soliq qonunchiligining ko'p manbaliligi.** Buyuk Britaniyada soliq qonunchiligi bir qator alohida qonunlar, jumladan, har yili qabul qilinadigan "Finance Acts" (Moliya qonunlari) orqali tartibga solinadi. Bu tizim soliq qonunchiligini iqtisodiy sharotlarga moslashtirishga imkon beradi.

- Sud pretsedentlarining ahamiyati.** Buyuk Britaniyada sud qarorlari soliq qonunchiligining muhim manbasi hisoblanadi. Britaniyalik sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar soliq qonunlarini sharhlash va qo'llashda muhim rol o'ynaydi.

- Territorial differensiatsiya.** Buyuk Britaniya tarkibidagi ma'muriy birliklar (Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya) ma'lum soliq

³ Malikov T.S. O'zbekistonda soliq islohotlarining zamонавиy tendensiyalari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2023.

⁴ English Bill of Rights 1689. Article 4. London: The National Archives of UK, 2021.



vakolatlariga ega. Bu soliq qonunchiligining territorial jihatdan farqlanishiga olib keladi.

4. "**Soliq to'lovchilar xartiyasi**" (Taxpayers' Charter). Buyuk Britaniyada soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qiluvchi maxsus hujjat mavjud bo'lib, u soliq to'lovchilar va soliq idoralari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.⁵

Britaniyalik olim J. Freedman ta'kidlaganidek, "Buyuk Britaniyada soliq qonunchiligi evolyutsion rivojlangan va bu evolyutsiya davomida soliq to'lovchi va davlat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining doimiy o'zgarishi kuzatilgan".⁶ Men bu fikrga qo'shilgan holda, aytishim mumkinki, Buyuk Britaniya soliq tizimidagi bu muvozanat soliq to'lovchilarning huquqlarini ta'minlashga va soliq majburiyatlarining to'g'ri bajarilishiga qaratilgan.

O'zbekiston va Buyuk Britaniya soliq qonunchiligining qiyosiy tahlili. Ikki mamlakatning soliq qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib o'tmoqchiman:

O'xshashliklar:

1. **Soliqlarning qonuniylik prinsipi.** Har ikkala mamlakatda ham soliqlar faqat qonun asosida belgilanadi va undiriladi.
2. **Soliq tizimining asosiy soliq turlariga o'xshashligi.** Har ikkala mamlakat soliq tizimi daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, mulk solig'i kabi asosiy soliq turlarini o'z ichiga oladi.
3. **Soliq ma'murchilagini raqamlashtirish tendensiyalari.** Har ikkala mamlakatda ham soliq ma'murchilagini raqamlashtirish jarayonlari kuzatilmoqda.
4. **Xalqaro soliq qochirish va soliqlardan bo'yin tovlashga qarshi kurash.** Har ikkala mamlakat ham xalqaro soliq qochirish va soliqlardan bo'yin tovlashga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirmoqda.

⁵ HMRC. Your Charter. 2023. // HM Revenue & Customs official website.

⁶ Freedman J. The Tax Avoidance Culture: Who is Responsible? // British Tax Review. 2022.

**Farqlar:**

1. **Soliq qonunchiligining manbalari va tuzilishi.** Buyuk Britaniyada soliq qonunchiligi ko'p sonli alohida qonunlar orqali tartibga solinsa, O'zbekistonda Soliq kodeksi asosiy manbai hisoblanadi.
2. **Sud pretsedentlarining roli.** Buyuk Britaniyada sud pretsedentlari soliq qonunchiligining muhim manbalari hisoblanadi, O'zbekistonda esa sud qarorlari bunday maqomga ega emas.
3. **Soliq yurisdiksiyasi va davlat tuzilishi.** Buyuk Britaniyada soliq yurisdiksiyasi ma'muriy birliklar o'rtasida taqsimlangan bo'lsa, O'zbekistonda soliq tizimi markazlashgan.
4. **Soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari.** Buyuk Britaniyada soliq to'lovchilarning huquqlari "Soliq to'lovchilar xartiyasi" orqali maxsus kafolatlangan bo'lsa, O'zbekistonda bunday maxsus hujjat mavjud emas.

5. **Soliq islohotlari o'tkazish usuli va sur'ati.** Buyuk Britaniyada soliq islohoti ko'proq evolyutsion tarzda amalga oshirilsa, O'zbekistonda oxirgi yillarda keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslarini qiyosiy o'rganish jarayonida yana bir muhim farqni aniqladim: Buyuk Britaniyada soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari tarixiy rivojlanish natijasida shakllanib, bir qator huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan bo'lsa, O'zbekistonda esa soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari ancha qisqa va lakonik tarzda ifoda etilgan. Professor S. Gulyamov ta'kidlaganidek, "O'zbekiston soliq qonunchiligi konstitutsiyaviy asoslarining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda soliq to'lash majburiyatları aniq belgilangan, ammo soliq to'lovchilarning huquqlari va davlatning majburiyatları yetarlicha ochib berilmagan".⁷ Men bu fikrga qo'shilgan holda, O'zbekiston Konstitutsiyasida soliq to'lovchilarning huquqlariga oid normalarni kengaytirish zarurligini ta'kidlamoqchiman.

⁷ Gulyamov S.S. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining huquqiy asoslari: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDYU, 2023.



O'zbekiston soliq qonunchiligining rivojlanish tendensiyalari. So'nggi yillarda O'zbekiston soliq qonunchiligidagi sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. 2018-2022 yillarda amalga oshirilgan islohotlar soliq tizimini tubdan o'zgartirdi. Men bu o'zgarishlarning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatmoqchiman:

1. **Soliq stavkalarining optimallashtirilishi.** O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20% dan 15% ga, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 20% dan 15% ga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi esa differensial stavkalardan yagona 12% li stavkaga o'zgartirildi.⁸

2. **Soliq imtiyozlari tizimining isloh qilinishi.** O'zbekistonda soliq imtiyozlari tizimi isloh qilinib, favqulodda imtiyozlar bekor qilinmoqda va barcha soliq to'lovchilar uchun teng sharoitlar yaratilmoqda.

3. **Soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi.** O'zbekistonda soliq ma'murchilagini raqamlashtirish orqali soliq to'lovchilar va soliq idoralari o'rtaсидаги munosabatlar soddallashtirilib, inson omili ta'siri kamaytirilmoqda.

4. **Soliq to'lovchilar huquqlarini ta'minlash mexanizmlarining takomillashtirilishi.** O'zbekistonda soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari kuchaytirilmoqda, jumladan, soliq nizolarini hal qilish tartibi takomillashtirilmoqda.

Shuni ta'kidlash mumkinki, bu islohotlar O'zbekiston soliq tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va tadbirdorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ammo, O'zbekiston soliq qonunchilagini yanada takomillashtirish zarur deb hisoblayman.

Buyuk Britaniya soliq qonunchiligining zamonaviy tendensiyalari. Buyuk Britaniya soliq qonunchiligi doimiy rivojlanish jarayonida. Men so'nggi yillarda Buyuk Britaniya soliq qonunchiligidagi quyidagi asosiy tendensiyalarini kuzatdim:

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi Farmoni. 2018-yil 29-iyun, PF-5468-son.



1. **Soliq qonunchiligini soddalashtirish.** Buyuk Britaniyada soliq qonunchiligini soddalashtirish va tartibga solish jarayoni jadal olib borilmoqda. Bu soliq to'lovchilar uchun tushunarli va qulay soliq tizimini yaratishga qaratilgan.

2. **Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish.** Buyuk Britaniyada "Making Tax Digital" (Soliqlarni raqamlashtirish) dasturi amalga oshirilmoqda, bu dastur soliq ma'murchiligini to'liq raqamlashtirishga qaratilgan.⁹

3. **Xalqaro soliq qochirish va soliqlardan bo'yin tovlashga qarshi kurashni kuchaytirish.** Buyuk Britaniya OECD doirasida Base Erosion and Profit Shifting (BEPS) loyihasida faol ishtirok etib, xalqaro soliq qochirish va soliqlardan bo'yin tovlashga qarshi kurashni kuchaytirishga harakat qilmoqda.

4. **Soliq tizimining ekologik yo'naltirilganligi.** Buyuk Britaniyada ekologik soliqlar tizimi rivojlantirilmoqda, bu soliqlar atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston soliq qonunchiligini takomillashtirish imkoniyatlari. Buyuk Britaniya soliq qonunchiligi tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston soliq qonunchiligini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni bermoqchiman:

1. **Konstitutsiyaviy normalarni takomillashtirish.** O'zbekiston Konstitutsiyasida soliq to'lovchilarning huquqlariga oid normalarni kengaytirish va aniqlashtirish zarur. Konstitutsiyada soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari, jumladan, soliq yuki adolatli bo'lishi prinsipi, soliq to'lovchilarning huquqiy himoyasi kafolatlari va davlatning soliq sohasidagi majburiyatlarini belgilash maqsadga muvofiq.

2. **"Soliq to'lovchilar xartiyasi"ni qabul qilish.** Buyuk Britaniya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ham "Soliq to'lovchilar xartiyasi" kabi hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq. Bu hujjat soliq to'lovchilarning huquqlarini va soliq idoralarining majburiyatlarini aniq belgilab beradi.

⁹ HM Revenue & Customs. Making Tax Digital: The future of tax administration. London, 2023.

**3. Soliq nizolarini hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish.**

O'zbekistonda soliq nizolarini hal qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, soliq nizolarini hal qilishda mustaqil sud tizimining rolini oshirish zarur.

4. Soliq qonunchiligin tushunish va qo'llash bo'yicha maslahat berish tizimini rivojlantirish. O'zbekistonda soliq maslahatchilik institutini rivojlantirish, soliq to'lovchilarga soliq qonunchiligin tushunish va qo'llash bo'yicha sifatli maslahatlar berish tizimini yaratish zarur.

5. Mahalliy hokimiyat organlarining soliq sohasidagi vakolatlarini kengaytirish. Buyuk Britaniya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlarining soliq sohasidagi vakolatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy soliqlar stavkalarini belgilash va soliq imtiyozlarini joriy etish bo'yicha kengroq vakolatlar berish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Professor F. Otaxonov ta'kidlaganidek, "O'zbekistonda soliq qonunchiligin takomillashtirish jarayonida soliq to'lovchilarining huquqlarini ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish, soliq to'lovchilar va soliq idoralari o'rtasidagi munosabatlarniadolat va qonuniylik prinsiplariga asoslangan holda rivojlantirish zarur".¹⁰ Men bu fikrga to'liq qo'shilaman va O'zbekiston soliq qonunchiligin yanada demokratlashtirish zarurligi haqidagi g'oyani qo'llab-quvvatlayman.

Xulosa

O'zbekiston va Buyuk Britaniya soliq qonunchiligin konstitutsiyaviy asoslarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldim:

1. O'zbekiston va Buyuk Britaniya soliq qonunchiligin konstitutsiyaviy asoslari ularning huquq tizimlari, tarixiy rivojlanishi va davlat tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buyuk Britaniyada soliq qonunchiligin konstitutsiyaviy asoslari bir qator tarixiy huquqiy hujjatlarda o'z

¹⁰ Otaxonov F.X. O'zbekistonda soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish // Jamiyat va boshqaruv. 2023.



aksini topgan bo'lsa, O'zbekistonda ular yagona Konstitutsiyada ancha lakonik tarzda ifoda etilgan.

2. Har ikkala mamlakatda ham soliq qonunchiligining bir qator o'xshash prinsiplariga amal qilinadi, jumladan, soliqlarning qonuniylik prinsipi, soliq to'lovchilar huquqlarining kafolatlanganligi, soliq yukining adolatliligi. Ammo bu prinsiplarni amalda qo'llash mexanizmlari turlicha.

3. O'zbekistonda soliq qonunchiligini takomillashtirish jarayonida Buyuk Britaniya tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu tajriba asosida O'zbekistonda soliq to'lovchilarning huquqlarini kuchaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq nizolarini hal qilish mexanizmlarini rivojlantirish va mahalliy hokimiyat organlarining soliq sohasidagi vakolatlarini kengaytirish zarur.

4. O'zbekiston Konstitutsiyasida soliq to'lovchilarning huquqlariga oid normalarni kengaytirish va aniqlashtirish, "Soliq to'lovchilar xartiyasi"ni qabul qilish, soliq nizolarini hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Men ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston soliq qonunchiligini yanada takomillashtirish, soliq tizimini demokratlashtirish va soliq to'lovchilarning huquqlarini ta'minlash jarayoniga o'z hissasini qo'shadi deb umid qilaman. Soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirish orqali O'zbekistonda adolatli, samarali va barqaror soliq tizimini yaratish mumkin.